

**O'zbekiston Respublikasi
aholisining umumiy daromadlari**

2025-yil yanvar-sentabr oylari bo'yicha dastlabki ma'lumot

- I. Aholining umumiy daromadlari to'g'risida ma'lumot
- II. Hududlar kesimida aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmi
- III. Respublika va hududlar kesimida aholi umumiy daromadlari tarkibi
- IV. Yollanma ishchilar daromadlarining o'sish sur'ati va ulushi
- V. Mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning o'sish sur'ati va ulushi
- VI. Transfertlardan olingan daromadlarning o'sish sur'ati va ulushi
- VII. Umumiy daromadlar tarkibida kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlar ulushi
- VIII. Aholining umumiy daromadlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Aholining umumiy daromadlari to'g'risida ma'lumot

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilning yanvar-sentabr holatiga aholining umumiy daromadlari **825,3 trln** so'mni tashkil etdi. Aholi daromadlari bo'yicha real o'sish sur'atlarini hisoblashda narx omillari ta'sirini chiqarib tashlash maqsadida, inflyatsiya ko'rsatkichlarining asosiy turlaridan biri – iste'mol narxlar indeksi (INI)dan foydalaniladi. Iste'mol narxlarining o'zgarishi sababli o'tgan yilning mos davriga nisbatan aholi umumiy daromadlarining real o'sish sur'ati **108,4 %** ni tashkil etdi.

Aholining umumiy daromadlari

2025-yil yanvar-sentabr

	Hajmi	Nominal o'sish sur'ati, % da	Real o'sish sur'ati, % da
Aholining umumiy daromadlari, trln so'm	825,3	118,4	108,4
Aholi jon boshiga umumiy daromadlar, mln so'm	21,8	116,1	106,3

2025-yilning yanvar-sentabr holatiga ko'ra, aholi jon boshiga umumiy daromadlar **21,8 mln** so'mni, aholi jon boshiga umumiy daromadlarning nominal o'sish sur'ati **116,1 %** ni va real o'sish sur'ati **106,3 %** ni tashkil etdi.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Aholi umumiy daromadlari hajmi \(choraklik\)](#)

[Aholi jon boshiga umumiy daromadlari hajmi \(choraklik\)](#)

[Aholi jon boshiga umumiy daromadlari real o'sish sur'atlari \(choraklik\)](#)

[Aholi umumiy daromadlari real o'sish sur'atlari \(choraklik\)](#)

II. Hududlar kesimida aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmi

2025-yilning yanvar-sentabr oylarida, aholi jon boshiga o'rtacha umumiy daromadlar bo'yicha Toshkent shahri (**52 029,6** ming so'm), Navoiy (**32 052,0** ming so'm), Buxoro (**25 972,3** ming so'm), Xorazm (**22 817,3** ming so'm) va Toshkent (**21 940,2** ming so'm) viloyatlarida o'rtacha respublika darajasidan yuqori ko'rsatkichlar qayd etildi. Aksincha Qoraqalpog'iston Respublikasi (**14 843,0** ming so'm) hamda Namangan (**15 832,1** ming so'm), Surxondaryo (**16 483,3** ming so'm), Qashqadaryo (**17 012,1** ming so'm), Jizzax (**17 074,1** ming so'm), Sirdaryo (**17 164,9** ming so'm), Samarqand (**18 110,6** ming so'm), Farg'ona (**18 478,8** ming so'm) va Andijon (**19 378,6** ming so'm) viloyatlarida aholi jon boshiga umumiy daromadlar bo'yicha o'rtacha respublika darajasidan quyi ko'rsatkichlar qayd etildi.

Hududlar kesimida aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmi *2025-yil yanvar-sentabr*

	Hajmi, ming so'm	Real o'sish sur'ati, % da
O'zbekiston Respublikasi	21 830,0	106,3
Qoraqalpog'iston Respublikasi	14 843,0	102,2
Andijon	19 378,6	101,1
Buxoro	25 972,3	106,1
Jizzax	17 074,1	104,7
Qashqadaryo	17 012,1	106,6
Navoiy	32 052,0	105,4
Namangan	15 832,1	104,0
Samarqand	18 110,6	104,1
Surxondaryo	16 483,3	103,4
Sirdaryo	17 164,9	105,6
Toshkent	21 940,2	103,3
Farg'ona	18 478,8	113,4
Xorazm	22 817,3	106,4
Toshkent sh.	52 029,6	110,3

Aholi jon boshiga umumiy daromadlarning eng yuqori real o'sishi Farg'ona viloyatida (**13,4 %**) va Toshkent shahrida (**10,3 %**) hamda Qashqadaryo (**6,6 %**) va Xorazm (**6,4 %**) viloyatlarida kuzatildi.


Shu bilan birga Buxoro (**6,1 %**), Sirdaryo (**5,6 %**), Navoiy (**5,4 %**), Jizzax (**4,7 %**), Samarqand (**4,1 %**), Namangan (**4,0 %**), Surxondaryo (**3,4 %**), Toshkent (**3,3 %**) viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida (**2,2 %**) va Andijon viloyatida (**1,1 %**) aholi jon boshiga umumiy daromadlarning real o'sish sur'atlari o'rtacha respublika darajasidan past ko'rsatkichni tashkil etdi.

III. Respublika va hududlar kesimida aholi umumiy daromadlari tarkibi

2025-yilning yanvar-sentabr oylarida aholi umumiy daromadlarining katta qismi yollanma ishchilarning daromadlari va mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarni o'z ichiga olgan mehnat faoliyatidan olingan daromadlardan (jami aholi umumiy daromadlarining **59,9 %** i) shakllandi. Aholi umumiy daromadlari tarkibida shaxsiy iste'mol uchun o'zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlarning ulushi **6,6 %**, mol-mulkdan olingan daromadlarning ulushi **3,3 %**, transfertlardan olingan daromadlar ulushi **30,2 %** ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasida aholi umumiy daromadlari tarkibi

2025-yil yanvar-sentabr



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Aholi umumiy daromadlari tarkibida birlamchi daromadlarning ulushi](#)

[Aholi umumiy daromadlari tarkibida ishlab chiqarishdan olingan daromadlarning ulushi](#)

[Aholi umumiy daromadlari tarkibida mol-mulkdan olingan daromadlarning ulushi](#)


[Aholi umumiy daromadlari tarkibida transfertlardan olingan daromadlarning ulushi](#)

Hududlarning aholi umumiy daromadlari tarkibida mehnat faoliyatidan olingan daromadlari (yollanib ishlovchilarning ish haqi va mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar)ning eng yuqori ulushi Navoiy viloyatida (**78,0 %**) kuzatildi. Aksincha, Farg'ona, Xorazm, Samarqand, Andijon, Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlarida hamda Toshkent shahri va Namangan viloyatida

o'rtacha respublika darajasidan past ko'rsatkichni tashkil etdi. Respublika bo'yicha aholi umumiy daromadlari tarkibida shaxsiy iste'mol uchun o'zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlar va mol-mulkdan olingan daromadlarning ulushi sezilarli darajada bo'lmasada, Toshkent shahrida bunday daromadlarning ulushi **20,5 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek, transfertlardan olingan daromadlarning ulushi Farg'ona, Andijon, Samarqand, Xorazm, Surxondaryo, Qashqadaryo, Namangan viloyatlarida hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi va Buxoro viloyatida aholi umumiy daromadlariga nisbatan **30 %** dan yuqori ko'rsatkichni tashkil etgan bo'lsa, Navoiy viloyatida mazkur daromad turining ulushi eng past ya'ni, **13,9 %** ni tashkil etdi.

Hududlar bo'yicha aholi umumiy daromadlari tarkibi 2025-yil yanvar-sentabr



■ Mehnat faoliyatidan olingan daromadlar

■ Shaxsiy iste'mol uchun o'zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlar va mol-mulkdan olingan daromadlar

■ Transfertlardan olingan daromadlar

IV. Yollanma ishchilar daromadlarining o'sish sur'ati va ulushi

2025-yilning yanvar-sentabr oylarida aholining umumiy daromadlari tarkibida yollanma ishchilarning daromadlari **26,1 %** ni tashkil qildi. Joriy davrda yollanma ishchilar daromadlarining o'sish sur'ati **121,7 %** ni tashkil etib, aholi umumiy daromadlari nominal hajmining **5,5 %** ga o'sishini ta'minladi.

Hududlar bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, Toshkent shahri va Navoiy viloyatida yollanma ishchilar daromadlarining aholi umumiy daromadlariga nisbatan ulushi va ularning o'sish sur'atining yuqoriligiga qarab, sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

Yollanma ishchilar daromadlarining o'sish sur'ati va ulushi

2025-yil yanvar-sentabr

	Yollanma ishchilar daromadlarining o'sish sur'ati, % da	Umumiy daromadlar tarkibida yollanma ishchilar daromadlarining ulushi, % da
O'zbekiston Respublikasi	121,7	26,1
Qoraqalpog'iston Respublikasi	116,3	26,8
Andijon	128,0	18,6
Buxoro	114,6	17,2
Jizzax	118,2	21,5
Qashqadaryo	119,5	17,3
Navoiy	117,5	38,6
Namangan	118,0	18,1
Samarqand	119,6	16,6
Surxondaryo	117,3	16,5
Sirdaryo	122,9	26,6
Toshkent	119,4	28,5
Farg'ona	108,1	17,2
Xorazm	113,8	16,0
Toshkent sh.	129,1	49,2

V. Mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning o'sish sur'ati va ulushi

Joriy davrda mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning o'sish sur'ati **115,3 %** ni tashkil etib, aholi umumiy daromadlari nominal hajmining **5,3 %** ga o'sishini ta'minladi. Hududlarda mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning eng yuqori ulushi Jizzax viloyatida **51,8 %** ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan nominal o'sish sur'ati **117,8 %** ni tashkil etdi.

Xuddi shunday Toshkent viloyatida mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar ulushi **44,6 %** ni va o'sish sur'ati **113,6 %** ni tashkil etdi va Buxoro viloyatida mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar ulushi **43,9 %** ni va o'sish sur'ati **115,5 %** ni tashkil etdi.

**Mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan
daromadlarning o'sish sur'ati va ulushi**
2025-yil yanvar-sentabr

	Mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning o'sish sur'ati, % da	Mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning ulushi, % da
O'zbekiston Respublikasi	115,3	33,8
Qoraqalpog'iston Respublikasi	114,7	33,2
Andijon	113,0	37,2
Buxoro	115,5	43,9
Jizzax	117,8	51,8
Qashqadaryo	117,4	41,5
Navoiy	114,3	39,4
Namangan	117,5	41,9
Samarqand	114,7	36,4
Surxondaryo	112,0	41,9
Sirdaryo	115,8	40,3
Toshkent	113,6	44,6
Farg'ona	117,0	32,3
Xorazm	115,3	37,1
Toshkent sh.	118,4	10,5

VI. Transfertlardan olingan daromadlarning o'sish sur'ati va ulushi

Aholining umumiy daromadlari tarkibida transfertlardan olingan daromadlar ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, ushbu daromadlar ijtimoiy transfertlar va boshqa joriy transfertlarni o'z ichiga oladi.

2025-yilning yanvar-sentabr oylari ma'lumotlariga ko'ra, transfertlardan olingan daromadlarning o'tgan yilning mos davriga nisbatan nominal o'sish sur'ati **122,2 %** ni tashkil etdi. Ushbu davrda aholining umumiy daromadlari hajmida transfertlarning ulushi **30,2 %** ni tashkil etdi.

2025-yilning yanvar-sentabr oylari dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, transfertlardan olingan daromadlarning **28,6 %** ini ijtimoiy transfertlardan olingan daromadlar tashkil qilgan bo'lsa, **71,4 %** ini boshqa joriy transfertlardan olingan daromadlar tashkil qildi.

Ijtimoiy transfertlar tarkibida pensiyalar eng ko'p ulush – **84,6 %** ni tashkil qilgan bo'lsa, nafaqalar **13,6 %** ni, stipendiyalar **1,8 %** ni tashkil etdi.

2025-yilning yanvar-sentabr oylari bo'yicha aholining umumiy daromadlari tarkibida (boshqa joriy transfertlar tarkibiga kiruvchi) respublika tashqarisidan kelib tushgan pul o'tkazmalarining ulushi **21,5 %** ni tashkil etdi.

Hududlar bo'yicha umumiy daromadlar tarkibida respublika tashqarisidan kelib tushgan pul o'tkazmalari hajmining ulushi
2025-yil yanvar-sentabr


Farg'ona	33,7 %	Namangan	23,0 %
Xorazm	32,0 %	Qoraqalpog'iston Resp.	18,5 %
Andijon	31,0 %	Toshkent sh.	14,5 %
Samarqand	28,8 %	Sirdaryo	13,2 %
Surxondaryo	27,0 %	Jizzax	9,7 %
Buxoro	24,9 %	Toshkent	6,1 %
Qashqadaryo	24,4 %	Navoiy	5,5 %

VII. Umumiy daromadlar tarkibida kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlar ulushi

2025-yilning yanvar-sentabr oylari dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi aholisining umumiy daromadlari hajmida kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlarning ulushi **57,9 %** ni tashkil etdi.

Aholi umumiy daromadlari tarkibida kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlar Jizzax (**67,6 %**), Buxoro (**64,4 %**), Toshkent (**63,7 %**), Namangan (**62,4 %**), Xorazm (**61,4 %**), Qashqadaryo (**61,1 %**), Surxondaryo (**60,9 %**) va Samarqand (**60,7 %**) viloyatlarida sezilarli ulushni egalladi. Toshkent shahrida (**47,5 %**) ellik foizdan kam ulushni tashkil etdi.

Umumiy daromadlar tarkibida kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlar ulushi
2025-yil yanvar-sentabr



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Aholi umumiy daromadlari tarkibida kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlar ulushi \(hududlar bo'yicha\)](#)

**VIII. Aholining umumiy daromadlari bo'yicha
uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar**

Aholining umumiy daromadlari doimiy yoki takrorlanuvchi xususiyatga ega bo'lgan, yillik yoki undan kam vaqt oralig'idagi davrda, uy xo'jaligi yoki uning alohida a'zolariga tushadigan pul va natura shaklidagi tushumlardan tashkil topadi.

Aholi umumiy daromadlarini hisoblashda Milliy statistika qo'mitasi hisoboti ma'lumotlaridan, shuningdek, muntazam ravishda statistika organlari tomonidan o'tkazib boriladigan yakka tartibdagi tadbirkorlar va dehqon xo'jaliklarining iqtisodiy faoliyati bo'yicha hamda uy xo'jaliklari daromadlari va xarajatlarini o'rganish bo'yicha tanlanma kuzatuv ma'lumotlaridan, bundan tashqari Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, Markaziy bank, Xalq banki, Soliq qo'mitasi tomonidan aholiga hisoblangan daromadlar, ijtimoiy to'lovlar va soliq to'lovlari to'g'risidagi umumlashgan ma'lumotlardan foydalaniladi.

Xalqaro statistika amaliyotiga muvofiq ravishda, qismlarga ajratish maqsadida umumiy daromad, qoidaga ko'ra "birlamchi daromad" va "transfertlardan olingan daromadlar"ga bo'linadi, bu o'z navbatida bandlik holati yoki ijtimoiy ta'minot tizimiga bog'liq holda institutsional o'zgarishlarning ta'sirini kuzatish imkonini beradi.

Metama'lumot uchun havola:

[Aholi umumiy daromadlari](#)

[Hududlar bo'yicha aholi jon boshiga umumiy daromadlari](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:
Aholi turmush darajasi statistikasi va
kambag'allikni baholash boshqarmasi

Manzil: 100170, Toshkent sh.
Mustaqillik shoh ko'chasi, 63-uy
Bog'lanish uchun: info@stat.uz
Tel.: 71-203-80-00 (12-61)

